



INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA PEDAGOGLARNING KASBIY-PEDAGOGIK KONPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Arslanova M.M.

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasini
p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.*

Tayanch so'zlar: pedagogik kompetensiya, pedagog, inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bola, maxsus ta'lim, maxsus pedagogika.

Ключевые слова: педагогическая компетентность, педагог, инклюзивное образование, дети с особыми образовательными потребностями, специальное образование, специальная педагогика.

Key words: pedagogical competence, teacher, inclusive education, children with special educational needs, special education, special pedagogy.

Yurtimizda ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ularning samaralari va natijalari alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limida ham o'ziga xos tarzda, ushbu sohadagi xalqaro va milliy pedagogik tajribalarni va yutuqlarni o'zida mujassam etgan holda namoyon bo'lmoqda.

"Barchamizga ayonki, muallimning obro'-e'tibori – bu avvalo millatning, butun xalqning obro'-e'tiboridir. Shu bois, biz keyingi yillarda o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, ta'lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish bo'yicha ulkan islohotlarni amalga oshirmoqdamiz" [1], deyiladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayrami tabrigida.

Shu bilan birgalikda bo'lajak o'quvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarida eng ilg'or pedagogik talablar, texnologiyalar va metodlarni qo'llash orqali bugungi barcha zamonaviy talablarga javob beradigan pedagog kadrlar bilan ta'lim tizimining barcha bosqichlari va tashkilotlarini ta'minlash alohida dolzarb masala sifatida qo'yilmoqda.

Pedagogik kompetentlik bugungi kunda butun dunyoda pedagogik faoliyat va ta'lim oldiga qo'yilgan ustuvor masalalardan biri bo'lib, inklyuziv ta'lim sharoitida u o'zining ayni shu yo'nalishga mos qator xususiyatlari va jihatlarini namoyon etadi. Ayni paytda ushbu mavzu nazariy va amaliy jihatdan pedagogika va maxsus pedagogika tadqiqotlari sirasida ham tobora qizg'inlashib bormoqda.

Pedagogik kompetensiya tushunchasi psixologik-pedagogik adabiyotlarda faol qo'llanila boshlandi. Ya'ni o'sha davr ilmiy adabiyotlarida o'qituvchining ta'lim jarayonlarida subyektivligi ijtimoiy zarurat sifatida qaralib, "kasbiy kompetensiya" tushunchasi ilmiy foydalanishga kiritildi.

Shundan beri, tadqiqotlarning yo'nalishlari va yondashuvlaridan kelib chiqib, ushbu tushunchaga berilgan ta'riflar ham turlicha bo'lib kelmoqda. Ba'zi tadqiqotchilar uchun pedagogik kompetensiya "pedagogik mahorat" tushunchasi bilan uyg'unlashib ketadi, boshqa bir guruh esa uni o'qituvchining kasbiy faoliyatdagi muammolarni muvaffaqiyatli hal qiluvchi omil sifatida ko'radi, yana bir guruh esa uni o'qituvchi faoliyatining asosiy sharti, o'qituvchi rivojlanishining yuqori darajasi yoki sifat tavsifi sifatida baholaydi [2].

Jumladan, bir qator tadqiqotchilar pedagogik kompetensiyani tizimli hodisa sifatida ko'rib, uning mohiyati o'qituvchining pedagogik bilimlari, tajribasi, xususiyatlari va fazilatlarining tizimli birligidan iborat ekanligi, ular pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga, pedagogik muloqot jarayonini maqsadli tashkil etishga imkon berishi, shuningdek, o'qituvchining shaxsiy rivojlanishi va takomillashuvini nazarda tutishi sifatida talqin qiladilar [3].

Shu o'rinda esa, A.I.Shcherbakovning [4] pedagogik kompetensiya o'qituvchining samarali mehnati shartlaridan biri bo'lib, u o'z ichiga o'z fanini chuqur bilishi, metodik savodxonligi, o'quv jarayonini tashkil etishda shaxsiy va kasbiy fazilatlaridan mohirona foydalanishi, degan fikrlariga qo'shilishni lozim deb bilamiz.

Shuningdek, taniqli tadqiqotchilar N. Xomskiy va I. Zimnya [5] tomonidan pedagogik kompetensiyaning bu nazariy bilimlarni o'z faoliyati davomida o'qituvchi tomonidan ongli holda, analiz va sintezga asoslangan shakllarda amaliyotga joriy etilishidir, degan fikrlariga ham qo'shilish mumkin. Sababi ta'limning doimiy o'zgarib, yangilanib boruvchi "harakatdagi" jarayon ekanligidan kelib chiqqanda, pedagogik kompetensiya o'qituvchining ham doimiy takomillashib boruvchi faoliyati va faolligini ifodalaydi.

Ya'ni, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, muhim ijtimoiy talablarni ang'lay olish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi [6].



Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik kompetensiya o'ziga xos ahamiyat kasb etib, bu ta'lim jarayonining o'ziga xos murakkabliklari va o'qituvchi kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan alohida talablari doirasida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki inklyuziv ta'lim - bu shunchaki, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar ta'lim oladigan muhitga olib kirish yoki ularni shunchaki "qo'shib o'qitish" emas.

Inklyuziv ta'lim modelini joriy etish orqali barcha toifadagi o'quvchilarning ta'lim huquqlarining tengligi ta'minlanishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi kabi vazifalar ta'lim tashkilotlari va undagi pedagoglar salohiyati holatini ochib beradi hamda o'z navbatida rivojlanishining yangi istiqbollarini belgilab beradi [7].

Inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik kompetensiya haqida so'z yuritishdan avval, eng avvalo, ba'zi ilmiy adabiyotlarda inklyuziv kompetensiyaning o'zi ham alohida ajratilib ko'rsatilishi holatlarini ham borligini aytib o'tish lozim. Mazkur maqolada esa, biz bevosita inklyuziv ta'lim jarayoni uchun lozim bo'lgan pedagogik kompetensiyalar haqida so'z yuritishni lozim, deb bilamiz.

Maxsus pedagogikaning taniqli nazariyotchilaridan biri N.M. Nazarova [8] pedagog xodimlarning inklyuziv ta'lim kompetensiyalarini (professional ta'lim misolida) 5 ta yo'nalishga tasniflab ko'rsatgan edi. Biz esa uning bevosita inklyuziv umumiy o'rta ta'lim bilan uyg'unlashtirgan holda quyidagi komponentlarga tasniflashni lozim, deb bilamiz.

Motivasion-qadriyatlar, ya'ni inklyuziv ta'lim tamoyillari asosida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan o'qituvchining ongli hoxish-istagi. Bunda o'qituvchining inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalariga mos bo'lgan bo'lgan qadriyatlar, ehtiyojlar, motivlar to'plamiga asoslanib, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bola bilan ishlash istagidan kelib chiqib o'zini muayyan kasbiy harakatlarni bajarishga undash qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Kognitiv - pedagogda oliy ta'lim yoki qayta tayyorlash jarayonida shakllangan alohida ehtiyojli bolalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va inklyuziv ta'limda o'quv jarayonini tashkil etish haqidagi nazariy va uslubiy bilimlar to'plami. Kognitiv kompetensiya maxsus pedagogika sohasidagi innovasion jarayonlarning ilmiy va kasbiy-pedagogik bilimlari bilan belgilanadi (hozirda bular sirasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni bilish, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bola shaxsini rivojlantirish, inklyuziv ta'lim va tarbiyaning pedagogik va psixologik, turli toifalardagi o'quvchilarning fiziologik,

yosh, psixologik va individual xususiyatlarini bilish kabi bilim, malaka va qobiliyatlarni kiritish mumkin).

Faoliyat – inklyuziv muhitda o‘quvchilarni muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar (tashkiliy-boshqaruv, kommunikativ, izlanish va tadqiqot) hamda kasbiy tajriba, shuningdek, ish jarayonida oshirilgan malaka, o‘rganilgan va yaratilgan innovasiyalar kiradi.

Tashkiliy-pedagogik - ya'ni ta'lim jarayonida aniq kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati sifatida belgilanadi. Tashkiliy kompetensiyalar inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarni hal qilish, pedagogik muammolarni mustaqil va mobil hal qilish usullari, o‘z ustida ishlash va tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik faoliyatning o‘zlashtirilgan usullari va tajribasidan iboratdir.

Refleksiv - kasbiy pedagogik faoliyat va uning natijalarini boshqalarga qaraganda ko‘proq va samaraliroq yuzaga chiqarish va bunga intilish qobiliyati. Mazkur komponentda pedagogning o‘zining tor mutaxassislik bilimlarini yanada rivojlantirishi, faoliyatga nisbatan ijodiy va innovasion yondashuvi orqali kasbiy o‘shirish namoyon qilishi ham nazarda tutiladi.

Bevosita inklyuziv pedagogik kompetensiyalarning o‘zi ham bir qancha mazmuniy komponentlarga (qobiliyatlarga) bo‘linadi (Ye.V. Tkachenko modeli asosida) [9] va ularni quyidagicha keltirish mumkin:

- tashxis - inklyuziv ta'limda har bir o'quvchining rivojlanish darajasi, individual o'qitish va tarbiyalash, umuman pedagogik jarayonning holati va uning alohida bosqichlarida to'g'ri tashxis qo'yish qobiliyati;
- prognostik - inklyuziv ta'lim sharoitida muayyan pedagogik harakatlar, joriy etiladigan o'quv dasturlari va metodlar natijalarini oldindan ko'rish qobiliyati;
- konstruktiv - o'quvchilarning turli xil ta'lim ehtiyojlarini, turli shakllar, usullar va o'qitish vositalarini hisobga olgan holda o'z pedagogik faoliyatini malakali rejalashtirish, maqsadlarni to'g'ri belgilash orqali pedagogik faoliyatni samarali loyihalash qobiliyati;
- tashkiliy - inklyuziv ta'limda pedagogik faoliyatni tashkil etish qobiliyati, kasbiy faoliyatda individual yondashuvni ijodiy qo'llash malakalari;
- kommunikativ - inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirishga hissa qo'shadigan pedagogik jarayon subyektlari bilan faol va samarali munosabatlar o'rnatish qobiliyati;
- texnologik - turli xil ta'lim ehtiyojlari va turli xil rivojlanish nuqsonlari bo'lgan talabalar uchun inklyuziv ta'lim usullari va texnologiyalarini amalga oshirish qobiliyati;



- korreksion - oraliq va yakuniy diagnostika natijalarini hisobga olgan holda har qanday bosqichda pedagogik jarayonning borishini tuzatish qobiliyati;
- tadqiqot - pedagogik hodisalarni o‘rganish, tahlil qilish, eksperimental ishlarni olib borish qobiliyati.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xalqaro va milliy pedagogikada ham yuqorida aytib o‘tilganidek, pedagogik kompetensiya masalasida hali hamon yangidagi fikrlar, g‘oyalar va yondashuvlar ilgari surilishda davom etmoqda. Shu boisdan, mazkur maqolada mavzuning barcha jihatlarini qamrab olish va batafsil talqin etish mushkil.

Xulosa sifatida aytganda, pedagogik kompetensiya inklyuziv ta’lim sifatiga, natijasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil va mezonlardan biridir. Bevosita o‘qituvchilarda samarali shakllantirilgan pedagogik kompetensiyalar inklyuziv ta’limning umumiy maqsadlariga to‘laqonli erishish, vazifalarini esa to‘laqonli amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu o‘z navbatida inklyuziv ta’lim tashkiloti faoliyatining maqsadlilikini, ta’lim iste’molchilari talab va ehtiyojlarga mosligini, reytingini, imidjini baholashda ham o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchilar va murabbiylarga tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/5569>
2. Вертий И.А. Педагогическая компетентность и педагогическое мастерство как деятельностные составляющие профессионализма педагога. <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskaya-kompetentnost-i-pedagogicheskoe-masterstvo-kak-deyatelnostnye-sostavlyayushchie-professionalizma-pedagoga/viewer>
3. Тлеубердиев Б.М., Рисбаева Г.А., Медетбекова Н.Н. Профессиональная компетентность педагога // Международный журнал экспериментального образования. 2013. № 10-1. С. 47-50
4. Щербаков А.И. Психологические проблемы профессиональной подготовки учителей в высшей школе / А.И. Щербаков, Л.: Просвещение, 1988. С.17.
5. Ломакина Г.Р. Педагогическая компетентность и компетенция: проблемы терминологии / Г.Р. Ломакина. - материалы I Междунар. науч. конф. М: Буки-Веди, 2012. С.276-279.
6. Raximov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta’lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida. Zamonaviy ta’lim / Современное образование. 2019, 7(80), 5-bet
7. Ахметова, Д.З. Инклюзивное образование как педагогическая инновация / Д.З. Ахметова, А.В. Тимирясова, И.Г. Морозова и др.; под научной редакцией Д. З. Ахметовой; Казанский инновационный университет. Казань: Изд-во «Познание» Казанского инновационного университета, 2022. С. 31.
8. Назарова, Н.М. Специальная педагогика / под ред. Н.М. Назаровой. М., 2001.
9. Ткаченко Е.В. Воспитание будущего педагога инклюзивного образования: науч. метод. сб. Вып. 1 / науч. ред. Е.В. Ткаченко. М., 2010.

РЕЗЮМЕ

Inklyuziv ta’lim jarayonida pedagogning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi ta’lim sifatida va samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida pedagogik kompetensiyaning ahamiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘g‘risida so‘z boradi.



РЕЗЮМЕ

В процессе инклюзивного образования профессионально-педагогическая компетентность педагога является одним из важных условий повышения эффективности образования. В данной статье говорится о значении педагогической компетентности в процессе инклюзивного образования, ее особенностях.

SUMMARY

In the process of inclusive education, the professional and pedagogical competence of a teacher is one of the important conditions for improving the effectiveness of education. This article talks about the importance of pedagogical competence in the process of inclusive education, its features.